

O‘rganish metodlari

Toshkent davlat Sharqshunoslik Universitetining Yaponshunoslik
fakulteti 2-bosqich talabasi

Jabborova Umida

Anatatsiya: Ushbu maqolada til o‘rganuvchilari tilni puxta o‘rganishi uchun foydali usullar keltirilgan. Kerakli va samarali usullarni to‘g‘ri tanlash orqali tez til o‘rganish.

Kalit so‘zlar: Elbert Eyshteyn so‘zlari, metod, dunyoqarash, mentalitet, adabiyot, urf odat, ibora.

Bizning zamonaviy davrda o‘qishga, o‘rganishga qiziqishi yuqori bo‘lgan talabalar juda ko‘p. Ularning esa o‘rganish bo‘yicha o‘ziga xos metodlari, o‘rganish usullari mavjud. Har bir o‘rganuvchi odam o‘ziga qulay va aqliy salohiyatiga ko‘ra o‘ziga eng to‘g‘ri deb bilgan usulni ya‘ni metodni tanlaydi. Hech bir o‘quvchi o‘ziga qiyin deb bilgan usulni tanlab, o‘zini qiynashi shart emas. Unga hech qanaqa bosim ham shart emas. Eng avvalo o‘quvchi, o‘rganuvchi mutlaqo erkin fikrlay olishi va erkin muhitda bo‘lishi kerak. Albert Eysheyning shunday so‘zlari bor: “Agar o‘qigan narsangni 6 yashar bolaga tushuntirib bera olmasang, buni o‘zing ham hali tushunmagansan”. Haqiqatdan ham inson o‘rganishi uchun ma‘lum maqsad asosida o‘rganmasa, uni o‘zgalarga tushuntirib bera olmasa, demak, u hali yetarlicha tushunmagan. O‘rganish uchun esa o‘quvchida puxta metod bo‘lishi kerak. Olimlarning fikriga ko‘ra, o‘quvchi o‘rganayotgan sohasiga ko‘ra qabul qilish darajalari har xil bo‘ladi. Til sohasini o‘rganuvchilar, avvalo, ular so‘z yodlash taktikasini o‘rganishi kerak. So‘z yodlashda qayta qayta o‘qish, bitta so‘zni o‘n marta qaytarish, kitobga chizib o‘qish, baland ovoz chiqarib o‘qish kabi usullar ham mavjud. Bu esa o‘quvchiga qaysi usuldan foydalanib yodlasa, shunchalik tez yodlaydi. Bugungi kunda mashhur ruhshunoslar xorijiy tillarni o‘rganishi inson dunyoqarashini qisman bo‘lsa-da o‘zgartirish xususiyatiga ega degan fikrni ilgari surmoqdalar. Xorijiy tillarni o‘rganish uchun o‘sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi, urf odatlari bilan yaqindan tanishib borish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘zimdanda kelib chiqadigan bo‘lsam, mening mutaxassisligim yapon tili. Hozirgi kunda yapon tilini o‘rganish bilan birga, uning tarixi, adabiyoti, urf

odatlari va shu bilan birga ularning bayramlarini ham o‘rganib bormoqdaman. Yapon tili gap qurilishi jihatidan o‘zbek tiliga yaqinligi sababli, o‘quvchida mustahkam sabr, iroda bo‘lsa o‘rganishga oson til hisoblanadi. Bugungi kunda til o‘rganuvchilarning asosiy qismini 17-35 yosh oralig‘idagi yoshlar tashkil etadi. Chet tilini nafaqat o‘qituvchi, mutaxassislar ko‘magida, balki mustaqil ravishda ham o‘rganish mumkin. Buning uchun esa ozgina qunt, mustahkam iroda va qat‘iy tartibga asoslangan kun rejasi bo‘lishi yetarli. Avvalo inson o‘rganish uchun reja tuzib olishi kerak. Masalan, aynan til o‘rganuvchilari o‘ziga mustahkam reja tuzib olsa, u o‘sha tilning mutaxassisi bo‘lishi shubhasiz. Quyidagi metodlar;

1) Til o‘rganish uchun har kuni kamida 5 soatdan shug‘ullanish. Bu o‘sha tilni tez va oson o‘rganishga keng yo‘l ochib beradi. Hech bo‘lmaganda o‘sha tilning yangi so‘zlarini yodlash va so‘z boyligini ko‘paytirishi kerak

2) O‘rganish davomida biror narsani nimagadir qiyoslab, o‘xshatib yodlash. Bu taktika doimo foyda beradi. Misol uchun, yapon tilida ko‘plab iyerogliflarni o‘rganish kerak. Bu iyerogliflarni esa biror narsaga qiyoslab yodlasa, tez eslab qolish va xotirada uzoq muddatga saqlab qolishiga erishadi.

3) Kichkina yon daftarcha tutish. Bu ham o‘rganishda yordam beradi. Ko‘chada ko‘rgan narsalarni daftarchaga yozib ketaverish. Eslagan so‘zlarni va o‘zini qiziqtirgan so‘zlarni yon daftarchaga yozish ham o‘rganishga katta yordam beradi.

4) Mustahkam xotira bilan ishlash va tarjimalik. Bu taktikada, biz kundalik hayotimizda eshitadigan, ko‘radigan kino, film, musiqa va shu kabi narsalarni tarjima qilishga harakat qilishimiz kerak. Bilmagan narsalarni lug‘atdan ko‘rib xotiraga saqlab qolishga harakat qilish kerak. O‘rganuvchilarning ko‘pchiligida ko‘rib, eslab qolish qobiliyati mavjud. Bu esa xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi.


5) Xatolar bilan ishlash taktikasi. Bu usuldan foydalanish o‘rganuvchi uchun juda qo‘l keladi. Negaki, inson xatosini ko‘rib, qayta tahlil qilib chiqsa, u shu xatoni qaytib qilmasligi aniq. Kitob o‘qish davomida, kitoblardagi mavjud xatoliklarni tuzatish ham katta mahoratning dalilidir.

Bu metodlar inson hayotida, ayniqsa, til o‘rganuvchilar orasida juda foydali hisoblanadi. Muhimi ularni o‘z vaqtida, tartibni buzmag holatda bajarish maqsadga muvofiqdir. Buyuk sinxron tarjimoni Kato Lomb mutaxassisligi kimyo fani bo‘lishga qaramasdan 8 ta tildan qiyinchiliksiz tarjima qilgan. 16 ta tilda erkin

muloqot qila olgan shaxsdir. Yuqorida sanab o‘tilgan metodlarni, u til o‘rganishdagi metodlarida qo‘llagan ekan.

Foydanilgan adabiyotlar

- 1) [https://odam.uz/news/til-o-rganishning-10-ta-qoidaga-asoslangan-
oson-usullari](https://odam.uz/news/til-o-rganishning-10-ta-qoidaga-asoslangan-
oson-usullari)
- 2) Buyumlar so‘zlari
- 3) <https://hikmatlar.uz/author/467>



Research Science and Innovation House

